**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSLARI KAFEDRASI**

**TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI**
**fanidan**

# *REFERAT*

HALIMOVA DILDORA FATHULLO QIZI

Bakalavriat yo'nalishi: 5111700 – boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish

Buxoro –2014

**MAVZU: Tarbiyasi og'ir bolalar va ular bilan olib boriladigan korrektsion ishlar**

**Reja**

1. Ta'lim islohotining bosh maqsadi barkamol shahsni shakllantirish.
2. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning hillari.
3. Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning kelib chiqish sabablari.
4 Atoqli pedagog V. A. Suhamlinskiyning tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan korrektsion diagnostik ishlari.
5. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarning mazmuni.

Hulosa

Adabiyotlar ro'yhati.

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi**. Ommaviy maktab oldida ta’lim va tarbiya jarayonida har bir bolaning har tomonlama barkamol o’sishini ta’minlashdek muhim va ma’suliyatli vazifa turadi. Maktabning pedagoglar jamoasi bu murakkab vazifani bajara borib, ba’zan ayrim bolalarning o’qishda qiynalishlari borligini ko’radi, bu qiyinchiliklar bolalarning kamol topib borishlaridagi kamchiliklar oqibatida tug’iladi, bunday kamchiliklar maktabda shu bolalarni o’zlashtirmasliklariga olib keladi.

Bolalarning kamol topib borishidagi kamchiliklar yoki anomaliya, g’oyat hilma-hildir. Ular bolaning psihofizik kamol topib borishining turli tomonlarida namoyon bo’lishi: eshitish-nutq tizimida, ko’rib idrok etishda, inteklektual, emotsional-irodaviy harakatlanish sohasiga taaluqli bo’lishi, turli darajada va turli sabablar tufayli kelib chiqishi mumkin.

Ulgurmaslikning ko’pgina sabablari bo’lishi mumkin. Pedagogika jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar, o’qituvchining metodika jihatidan etarli darajada qurollanmaganligi, o’quvchining tartibsizligi va o’quv materialini notug’ri yo’l bilan o’rganishi, oilada bolaning yahshi tarbiyalanmasligi, ya’ni yahshi nazorat qilinmasligi, o’quvchining intizomsizligi va tarbiyasi bo’zuqligi va boshqalar shunday ulgurmaslik sabablari jumlasiga kiradi. Psihofizik kamol topib borishida kamchiliklari bo’lmagan bolalarda ulgurmaslikning kelib chiqish sabablarini anik tahlil qilish va bu kamchilikni yo’q qilish yo’llarini ishlab chiqish muhimdir.

Bundan maqsad - maktab direktori va pedagoglariga bolalarning psihik va jismoniy o’sishidagi kamchiliklarining tabiati va harakterini, ularning namoyon bo’lish hususiyatlarini, ularni to’zatish va o’rnini to’ldirish usullari hamda metodlarini ko’rsatib berishdir.

Ta’lim islohotining bosh maqsadi barkamol shahsni shakllantirish.

Umumta'lim maktabida o'qishi, intizomi normal o'quvchilar bilan birga tarbiyasi qiyin o'quvchilar va pedagogik e'tibordan chetda qolgan o'quvchilar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Bularni tarbiyalashda butun jamiyat ishtirok etishi kerak. Ammo asosiy og'irlik oila bilan maktab zimmasiga tushadi. Shuning uchun maktab o'qituvchisi, tarbiyachi, psiholog tarbiyasi qiyin o'quvchilar va pedagogik e'tibordan chetda qolgan o'quvchilarni kelib chiqish sabablarini bilib, ularni tarbiyalash yo'l va vositalarini izlashi kerak. Eng avvalo ularni kelib chiqish bosqichlarini aniqlash lozim. Buning uchun:

Tarbiyasi qiyin o'quvchilar va pedagogik e'tibordan chetda qolgan o'quvchilarini aniqlash;

Tarbiyasi qiyin o'quvchilarni tiplari, turlari va hillarini aniqlash;

- Kelib chiqargan muhit va shahsiy hususiyatlarini bilish kerak;
- Oiladagi munosabat, salomatligining yomonligini bilish;
- O'z kuchidan to'g'ri foydalana olmaslik;
- Bolalar jamoasidagi o'rnidan qanoatlanmaslik;
- Oiladagi o'zining o'rnidan noroziligi tarbiyasi qiyin yoki pedagogik e'tibordan chetda qolgan bolalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu murakkab pedagogik-psihologik ijtimoiy jarayon bo'lib, ko'p omillarga boglikdir. Shuning uchun ularni tarbiyalash ham mahsus, maqsadga qaratilgan usul va vositalar asosida amalga oshirilishi kerak.

Ularni tarbiyalashning muhim yo'llaridan biri -ruhiy holatini chukur va har tomonlama bilishdir.

Maktabdagi o'qituvchilar tajribasini tahlil qilsak asosiy hato tarbiyasi qiyin o'quvchilar psihologiyasini o'ziga hos hususiyati ularni hayoti va tarbiyasi bilan bogliqligidir.

Misol: tarbiyasi qiyin o'quvchilar va pedagogik e'tibordan chetda qolganlar ikkalasi aynan bir narsa emas. Tarbiyasi qiyin o'quvchi tarbiyasi o'qituvchi va tarbiyachilar uchun qiyin ish. Chunki ularga hammaga tegishli bo'lgan ta'lim-tarbiya usuli yordamchi bera olmaydi. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar

esa pedagogik e'tibordan chetda qolgan o'quvchilar ta'siri yoki oqibati emas tarbiyasi qiyin o'quvchilar kasalligi

A.tugma, hususiy va hokazolar ta'siri ostida bo'lishi mumkin yoki ahloqiy ishdagi kamchiliklar ta'sir qilishi mumkin.

Maktabdagi boshlang'ich ta'lim davrida bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirib borish jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Ta'lim bilan tarbiya bolaning psihik kamol topib borishi uchun belgilab boruvchi ahamiyatga egadir, kamol topib borishdagi olg'a harakat esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida pedagog shuni e'tiborga olishi muhimki, bolalar o'zlariga taklif qilingan ba'zi vazifalarni tamomila mustaqil suratda bajara oladilar, bunda ular psihik kamol topib borishning shu paytgacha erishilgan darajasiga, amaliy tajriba, bilim, malaka va kunikmalarga tayanadilar. Shu bilan birga biror murakkabroq topshiriqni mustaqil suratda eplay olmagan bola uni pedagog yordamida (uning qo'shimcha tushuntirish, ko'rsatish, yordamchi savollar berishi va hokazo yo'l bilan) bajara oladi. Bu hol bola imkoniyatining go'yoki ikkilamchi darajasi bo'lib, uni psihologiyada eng yakin kamol topish zonasi deyiladi. Shu sababli, ta'lim jarayoni aktual kamol topish darajasigagina, ya'ni shu paytgacha tarkib topgan psihik funktsiyalargagina tayanib kolmay, balki uning potentsial imkoniyatlariga, tarkib topayotgan funktsiyalarga, ya'ni eng yakin kamol topish zonasiga ham tayanishi lozim. Ta'lim eng yakin kamol topish zonasining aktual kamol topishga o'tishiga yordam berishi lozim. Bu holda bola bugun yordam olgan taqdirdagina bajara oladigan vazifani ertaga mustakil bajara oladigan bo'lishi zarur. Ta'lim bilan kamol topish urtasidagi ichki boglanish ham huddi ana shundadir. Binobarin ta'lim bilan kamol topib borish urtasidagi aloka g'oyat hilma-hil bulsa ham, bolaning kamol topib borishining eng yaqin zonasiga tayanuvchi ta'limgina chinnakam samarali bo'lishi mumkin.

O'qishning dastlabki kunlaridayoq bola o'zlashtirishi kerak bo'lgan bir qator umumlashtirgan tushunchalarga ( mebel, idish, poyafzal, kiyim-kechak, o'quv qurollari, uyinchoqlar va singari tushunchalarga) duch keladi.

Bunday umumlashtirilgan tushunchalarni o’zlashtirish yil sayin asta-sekin murakkablashib boradi, bolada abstrakt tafakkurining muayyan darajada kamol topgan bo’lishini talab qiladi. Boladagi abstrakt tafakkur darajasini aniqlashning eng samarali usuli - unga predmetlarni, ham yahshisi, predmetlar tasviri tushirilgan suratlarni klassifikatsiya qildirish usulidir. Suratlarni bola alohida guruhlarga (rezavor meva, sabzavot, baliklar, hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, uyinchoklar, transport turlari, mehnat kurollari va hokazolar) birlashtira oladigan kilib tanlashi zarur. Kichiq yoshdagi maktab o’quvchilariga ular uchun eng yakin va tanish predmetlar, kattarok yoshdagi bolalarga esa murakkabrok va kamrok tanish bo’lgan predmetlar tasvirlangan suratlarni berish kerak.

Pedagog bolaga suratlarni berib ularni klassifikatsiya gruppalariga bo’lib ajratib terishni taklif etadi. Agar bola vazifani darhol tushuna olmasa, kushimcha tushuntirishlar berish kerak, bu ham yordam bermasa - bitta misol ko’rsatish lozim. Bola vazifani bajargandan keyin, yoki bu suratlarni birgalikda kuyganligini (har bir guruh hakida) surash lozim. Shundan keyin bu guruhlarni yiriklashtirishni taklif etish kerak. Odatda bilish faoliyatida nuqsoni bulmagan bolalar bu topshiriklarni uncha kiynalmasdan bajaradilar; intellektual jihatdan normal bo’lgan, ammo kamol topishi bir oz orkada qolgan odamlar ba’zan guruhlarni yiriklashtirishda qiynaladilar va ularni konkret - vaziyat belgilariga qarab birlashtiradilar. Aqliy jihatdan kolok bola hatto dastlabki guruhlash vaqtidayok qiyinchilikka uchraydi va turli predmetlarni rangiga qarab bir guruhga, kiritish mumkin yoki tor vaziyat printsipi asosida, (ruchka bilan stolni ) bir guruhga kiritish mumkin.

Bolalardagi abstraktsiya va umumlashtirish darajasini tekshirish uchun predmetlarni klassifikatsiya kilidirishning birmuncha soddarok usulidan, ya’ni bolaga turtta predmet yoki shu predmetlar aks ettirilgan turtta surat berib, ular orasidan ortikcha turtinchi suratni ajratib oldirish usulidan ham foydalanish mumkin. Masalan, quyi sinf bolalariga sigir, ot, quyon va archa tasvirlangan suratlar beriladi; boshka hammasiga to’g’ri kelmaydigan bitta suratni boshqa yokka olib kuyish taklif etiladi.

Intellekti normada bo’lgan 1-sinf o’quvchisida bu topshirik odatda hech kanday qiyinchilik tugdirmaydi; u archa suratini ajratib qo’yadi. Intellektual rivojlanishda orkada qolgan bolalar esa ko’pincha ikkita suratni - quyon bilan archani olib qo’yadi, ularni vaziyat belgisiga qarab birlashtiradi. Tekshirishning bu usulini murakkabligiga qarab va bolalar yoshini hisobga olib, har hil tarzda o’tkazish mumkin. Masalan, III-IV sinf bolalariga tarozi, termometr, soat va ko’zoynak tasvirini (ko’zoynakni olib kuyish kerak, chunki u ulchov asbobi emas) yoki elektr lampochkasi, kerosin lampa, sham va kuyosh tasvirlangan rasmni taklif qilish mumkin (quyosh rasmini olib quyish kerak, chunki u nurning tabiiy manbaidir). Bolaning kamol topib borishi u va uning imkoniyatlari hakida to’g’ri tasavvur hosil qilish uchun uning maktabda orttirgan bilim va malakalarni batafsilrok bilish lozim. Bunda bola programmaning kandaydir bir bulimini bilmasligini rasmiy ravishda aniklashning bir o’zi muhim emas. Bolaning orkada kolishi sabablarini ochish, ya’ni uning ish prossesini o’rganish hamda uning muayyan bir vazifani bajarishiga nima halakit berayotganligini anglab borish. Masalan, o’quvchi biror tekstni o’qishga qiynalayotir. Pedagog bolaning qiyinchiligi nima ekanligini anglab borishi zarur. O’quvchi so’zning uni tashkil etuvchi tovushlarga bula olmasligi, harflarning ko’zga kurinib to’rgan obrazini esda saklab kololmasligi, talaffo’zi uhshash bo’lgan tovushlarni yoki shakli uhshash bo’lgan harflarni qiyinchilik bilan ajrata olishi, harf bilan tovushning o’zaro nisbatini anglay bilmasligi mumkin. Buginlarni o’qish vaqtida tovushlarni kushishda, ayniqsa yopik buginlarni yoki ketma-ket kelgan undoshlarni kushishda qiyinchiliklar uchrashi mumkin. Bola buginlar o’rnini almashtirib yuborishi, buginlarning ba’zilarini tashlab ketishi yoki ayni bir tovush yoki so’zni takror o’qishga yo’l kuyishi yoki tahminan o’qishdan foydalanishi natijasida so’z strukturasini  to’zilishini) idrok etishida bo’zilish paydo bo’lib, butun so’zlarni o’qish vaqtida bolada qiyinchilik vujudga kelishi mumkin.

Qiyinchiliklarni bunday harakteri jismoniy yoki fonematik eshitishning, kurish hususiyatining etarli rivojlanmaganligiga boglik bo’lishi, ba’zan esa psihik faoliyatning har kanday turini bajarish vaqtida differentsiallash jarayonini

qiyinlashtiruvchi umumiy psihik koloklik okibati bo’lishi mumkin. Bunda bolalar ko’pgina mashgulotlarga katnashmagan yoki noto’g’ri o’qitilgan bulsa, materialni o’qish vaqtida ruy beradigan manzara tashki jihatdan yukoridagi manzaraga uhshab ketishini bilish zarur. Ammo bunday hollarda to’g’ri tushuntirish va tegishli mashklar utkazish shunday qiyinchiliklarni ancha tez va oson bartaraf etadi.

**arbiyasi qiyin o’quvchilarning hillari.**

Maktabdaa tarbiyasi qiyin bolalar borishi uchun o’qituvchilar bilan direktorlarni ayblab bulmaydi. Huddi vrach davolashni boshlash uchun, hasta kishining organizmini sinchiqlab tekshirgani, hastalik sababini kidirgani va topgani singari pedagog ham bolaning akliy, emotsional, ma’naviy tarakkiyotini fikr kilib, e’tibor, sabr-tokat bilan tekshirib chiqishi, bolaning tarbiyasi qiyin bo’lib kolishining sababini izlash va topishi, odam individual dunesining kiiinchiliklarini, hususiyatlarini hisobga oladigan tarbiyaviy ta’sir choralarini kurish kerak. Pedagogning kulida yana bir vosita bor - u tarbiyasi qiyin bolalarni paydo qiladigan sabablar oldini olishi, albatta, bir o’zining kuchi bilan emas, jamoatchilik yordamida oldini olishi mumkin.

Ahir, chinakam insonparvar vrachning - har bir vrach esa - avvalo insonparvar odam - kasal kishiga: dardingiz to’zalmaydigan, ahvolingizga ishonib bulmaydi deyishini tasavvur etib bo’ladimi... Bunday vrachni bir kun ham kasalhonada koldirib bulmaydi-ku! Pedagogikaning insonparvarligi kishilarning ko’pchiligi kishilarning ko’pchiligi kuchi etadigan ishni uddalay olmaydigan kishi o’zini boshkalardan kam his etishdan iborat.

Tarbiya ishidagi ko’p yillik tajriba, bolalar akliy mehnatini va ruhiy dunyosini tadkik etish - bularning hammasi bolaning tarbiyasi qiyin, o’zlashtiruvchi, kolok bo’lib kolishi sabablari juda ko’p hollarda erta bolalik yillarida, uni kurshab olgan sharoitda, unga berilgan tarbiyada degan ishonchga olib keladi.

Biz pedagoglar, tarbiyasi qiyin bolani, bu dard qanchalik zurikib ketgan bulmasin, mehnat, ma’naviy hayot ma’nolarni yodda tutishimiz lozim. Bizning

yuksak burchimiz shundan iboratki, har bir tarbiyalanuvchimiz o'zi uchun rizk-ro'z topishgina emas, balki yashash kuvonchi, o'z qadr-qimmati hissini beradigan turmush yo'lini tanlasin. Chunki bolalik choglarida uning atrofida bo'lganlar shu davrda u olishi kerak bo'lgan hamma narsani tula bermagan. Insonning fikr qilishi «nega» degan savoldan bosh8lanadi. Bola atrof dunyodagi ko'plab hodisalarni ko'radi, u bir yarim-ikki yoshda, lekin u endi hodisalarni shundok idrok etibgina kolmay, balki odam ko'zi bilan ko'radi - ajablanadi: gullagan olmaga asalari uchib keladi, keyin yana uchib ketadi.

Bilib olishga kizikish, sinchkovlik, bilish ishtiyoki, tabiat sirlaridan yoki, e'tibor bering, bunisi muhim, tevarak dunyo go'zalligidan ajablanish, hayratda kolish-bularning hammasi tabiatdan berib kuyilgan bulmay, balki odamdan kabul kilib olinadi va u odamning normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan insoniy, ijtimoiy munosabatlarning eng muhim elementi. Kichkina bola tafakkurining rivojlanishi - bu avvalo kurish, ko'zatish malakasining rivojlanishi, tevarak-atrofdagi olamni kurib idrok etish orkali fikrning boyishi. Lekin kurish malakasi - insoniy malaka nazarda tutiladi - bu tabiat in'omi emas, balki ongli turmushning eng boshidan boshlab insoniy munosabatlar mahsuli. Tarbiyachining vazifasi bolaning narsalardagi, hodisalardagi eng nozik tomonlar va o'zgarishlarni seza oladigan, ularning sabab-okibat boglanishlarini uylab ko'radigan bo'lishidan iborat.

Bola bironta yangi, tushunmaydigan narsasini kurib, hayratlanish tuygusini boshdan kechirayotgan paytlarda o'qish-o'rganish eng intensiv, eng jiddiy bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning akliy tarbiyasida ertakning, kushikning roli benihoya katta. Halq ertaklari yo'zaga keltirgan emotsional hayajon, kuvonch yoki hafalik, zavk, yoki hayrat-bola kalbida biz uygotgan eng nozik harakatlar -e'tiqod deb yuritadiganimiz organizmning yuragi ham mana shular ekaniga men ko'plab marta ishonch hosil kilganman. Bolaning akliy rivojlanishiga men avvalo uning kelajakdagi shahsiy bahti nuktai nazaridan karayman. Bahtni qandaydir shahsiy bir nima deb qarab bo'lmaydi.

**Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning kelib chiqish sabablari.**

O'qituvchi jamoasi har qancha urinishidan qat'i nazar, ta'lim jarayonida tarbiyasi qiyin o'quvchilar ham uchrab turadi. Hozirgi davrda bunday o'quvchilar bilan yakkama-yakka ishlash usuli yaratilgan, fe'l atvordagi nuqsonlarning hatti-harakati nosoglomligining oldini olish va to'zatish yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilgan. Tadqikotlarning ko'rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injik, hulki salbiy bolalarning kelib chiqishning ijtimoiy sabalaridan tashkari, pedagogik va psihologik sabalari ham mavjud. O'quvchilarda nojuya hatti-harakatlar paydo bo'lishining sabalari va turtkilari har hildir. Konunni bo'zish yoki koidaga hilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin usmirlar jinoiy konunbo'zar va oddiy koida bo'zar guruhlarga ajratiladi.

SHahsning biologik o'sishdagi nuqsonlar, sezgi organlarining kamchiliklari, o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi kusurlar tarbiyasi qiyinlarim keltirib chiqaradi. SHahsning psihik o'sishdagi kamchiliklar, chunonchi, akl-idrokning zaif rivojlangani, irodaning bushligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va kizikishlarning mavjud emasligi, usmiirning intilishi bilan mavjud imkoniyati urtasidagi nomutanosiblik va hokazolar hatti-harakatni izdan chiqaradi. SHahsning fazilatlari tarkib topishidaga nuqsonlar: ahlokiy hislarning etishmasligi, o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri mulokot, ishyokmaslik, bush vaqtni to'g'ri taksimlamaslik va boshkalar ham salbiy kiliklarni vujudga keltiradi. SHahsning bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari: akliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim, kunikma va malakalarni egallashdagi o'zulishlar, maktab faoliyatidagi o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora va tadbirlardagi hatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashkari muhitning ta'siridagi nuqsonlar,

chunonchi, oilada pedagogik-psihologik bilimlarning etishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish, ota-onaning ichkilikka va shahvoniy hayotga berilishi, balogatga etmagan tengkurlarining ta’siri, madaniy-ma’rifiy ishlab chiqarish jamoalari hamda jamoatchilik kurshovidagi kamchiliklar ham tarbiyasi qiyin usmirlar ko’payishiga sabab bo’ladi.

Tarbiyasi qiyinlarni o’rganishda kino lavhalar, yuridik varaka, ishontirish, ragbatlantirish, buysuntirish, kurkitish, "sun’iy qiyin holatni yaratish" singari usullardan foydalaniladi. Odatda novella, vahshiy hikoya, sargo’zasht, ocherk kabi adabiy asarlardan foydalanish usmirlar hatti-harakatining sabalarini o’rganishda yahshi samara beradi. O’qituvchi, sinf rahbari yoki ichki ishlar hodimlari tomonidan tarbiyasi qiyin usmirlarga tegishli asardan parcha ukib beriladi, sung ularda kanday ko’zgalish yoki ta’sirlanish paydo bulayotganligi ko’zatiladi. Tarbiyasi qiyin usmirlardagi hususiyatlarni o’rganishning yana bir yo’li alohida-alohida suhbat utkazish orkali ularning ruhiy kechinmalari bilan tanishishidir. Suhbat kezida yahshi va yomon hulk atvor, hatti-harakatlar yo’zasidan keng ma’lumotlar tuplanadi. Birok utkazilgan suhbatlar usmirning psihik dunyosiga shunday ta’sir qilishi kerakki, natijada unda vijdon azobi, ungaysizlik tuygusi vujudga kelsin.

Tarbiyasi qiyin usmirlarning tipologik hususiyatlariga binoan bir necha turlarga ajratish mumkin. Tarbiyasi qiyin bolalarning **birinchi turi** orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Ular o’z hatolarini bilib turib konun va koidalarni bo’zadilar, noma’kul ishlarni qiladilar. Ko’pincha ular o’zlarining gunohkor ekanligini tan olmaydilar, maktabdagi ayrim kamchiliklarni tankid qiladilar. Lekin yutuklarni e’tirof etishni hohlamaydilar. SHahsiy fikrlarini boshka kishilarga ma’kullashni va o’z talablarini o’zgalar so’zsiz bajarishini juda yoktiradilar. Bunday bolalar betgachopar, ujar tabiatli, rahm-shavkatsiz, "zuravon" bo’ladilar. Mustakil fikrga ega bulmagan tengdoshlarini o’z atroflariga tuplaydilar va birgalikda tartib bo’zishga undaydilar.

**Ikkinchi turga** mansub tarbiyasi qiyin usmirlar yahshi va yomonni tushunadilar, birok mustakil e’tikodga, barkaror yuksak his-tuyguga ega

emasliklari sababli "orka kanoat"da turib koidalarni bo’zadilar. Ularning hatti-harakatlari tasodifiy vokelikka, ta’sir kuchiga va vaziyat hususiyatiga boglikdir. Ular tashvikotga tez beriladilar, barcha narsalarga ishonadilar, kaysi yo’lga kirib qolganliklarini anglab etadilar, birok "kompaniya" fikriga karshi borishga botina olmay kungilsiz ishlarga kul uradilar. Ko’pincha tartibbo’zarlar kilmishlariga tavba kilib, sinf jamoasi a’zolarini ishontiradilar, lekin ma’lum fursat utgandan keyin bergan va’dalarini butunlay unutadilar.

**Uchinchi guruhga** mansub tarbiyasi qiyin usmirlar shahsiyatparastlik tufayli konunbo’zarlik, tartibbo’zarlik yo’liga kirib koladilar. Ular shahsiy talablarini va ehtiyojlarini kondirish uchun har kanday hatti-harakatdan kaytmaydilar, hamisha

-11odamlarga yahshilik qilishni orzu qiladilar, birok o’zlarini shahsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yukori qo’yadilar. O’zlarini hohishlarini takiklangan usullar bilan amalga oshiradilar,. Sung kilmishlariga afsus chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar, ularning shahsiy ehtiyoji har kanday yuksak hislardan, hohishlaridan ustun turadi. Konunga hilof hatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo’ladi. Injik tabiatli bolalar **turtinchi guruhga** mansub bo’lib, ular sinf jamoasida o’z urinlarini topa olmagandan kayguradilar. Bunday ukvchilar ginahon, arazchi bo’ladilar, shuning uchun sinf jamoasida kamsitilayotgandek kechinmalar bilan yashaydilar. Bunday holatning vujudga kelishiga asosiy sabab shahsiy imkoniyatlardan kura intilish, mayl va obru ketidan kuvishning ustunligidir. Ular jamoa a’zolarining hurmatiga sazovor bo’lishni istaydilar. Ko’pincha tundlik bilan ish tutadilar, biror narsaga hayrihohliklari yakkol ko’zga tashlanmaydi. Tushkinlik kayfiyati, umidsizlik, o’z imkoniyati, akliy kuvvatiga ishonchsizlik ularga hos hususiyatlardir. Ular konun va koidalarni astoydil bo’zishga harakat kilmasalar-da, ta’lim va tarbiya jarayonida qiyinchilik tugdiradilar.Tarbiyasi qiyin usmirlarning hatti-harakatlarini ijobiy yunalishga burib yuborish uchun ularda mas’uliyat, gurur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak hislarni tarkib toptirish lozim.Buning uchun ularga yoshi, kuchi kobiliyati va kizikishlarini hisobga olib topshiriklar berish ayni muddaodir. Ularga

kichiq jamoani, sport sektsiyasini, tirik burchakkni boshkarish vazifasini ishonib toptirish natijasida salbiy fe’l-atvorini kamaytirish mumkin. Ularni o’zlari kizikkan tugaraklarga jalb qilish orkali o’qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo’qotib boriladi.

Tarbiyasi qiyin o’quvchilarni kayta tarbiyalash uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak.Tarbiyasi qiyin o’quvchilarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasi:

1. **SHahsning** biologik nuqsonlari :

A) Sezgi organlarining kamchiliklari

B) O’qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament hususiyatlarining mavjudligi.

B) Psihopatalogik ojizliklar

2.SHahsning psihik kamolotidagi kamchiliklar:

A)Aklning bush usganligi;

B) Irodani zaifligi;

V) SHahsda hissiyotning kam rivojlangani;

G) Zarur ehtiyoj va bilishga kizikishlar mavjud emasligi;

D) Usmirdagi intilish bilan imkoniyatlarining nomutanosibligi.

Z.SHahsning tarbiyasidagi nuqsonlar.

A)Ahlokiy hislatlarida uchraydigan kamchiliklar ;

B)Usmirning o’qituvchi, sinf jamoasi va oila a’zolari bilan mulokotidagi

zaifliklar;

V) Mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

G) Bush vaqtni taksimlashdagi hatolar.

4.SHahsning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

A) Bilimlar, mahsus kunikmalar va malakalarni egallashdagi o’zilishlar.

B) Ta’lim jarayonida akliy mehnat usullari va operatsiyalarining etishmasligi

5. Maktab ta’limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

A)Ta’lim jarayonida bilimlar va hatti-harakatlarni adolatsiz baholash, darslik va o’quv qo’llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda koldirish va hokazo. B) Maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o’qituvchining usmirga

hayrihohmasligi, o’quvchining yakkalanishi, o’qituvchilar va o’quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik karovsizlik , o’z o’rnini topa olmaslik va boshkalar .

6. Maktabdan tashkari muhitdagi nuqsonlar;

A) Oklada pedagogik va psihologik bilimlarning etishmasligi B) Oilaning bo’zi lishi va oilaviy nizolar.

B) Ota-ona yoki oila a’zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi. G) Oila a’zolari urtasida sudlangan odamning uchrashi.

D) Tengkurlarning salbiy ishlarga (hakorat qilishga,ichishga,chekishga,kuli egrilikka)

o’rgatishi va hokazo.

E) Madaniy- ma’rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari.

Umumta’lim maktablarida ishlaydigan o’qituvchilar,tarbiyachilar, maktab psihologlari ta’lim-tarbiya jarayonini to’g’ri tashkil qilish uchun tarbiyasi qiyin o’quvchilar va pedagogik e’tibordan chetda qolgan o’quvchilar bilan ishlashga to’g’ri keladi. SHuning uchun ularni keltirib chiqargan sabablar va bunday o’quvchilarning turlarini bilish mutlako zarur. YUkorida aytib utgan turlarimiz esa bunga misol bula oladi. Tarbiyasi qiyin o’quvchilar o’z-o’zidan paydo bulmasdan, u murakkab ijtimoiy jarayon bo’lib hisoblanadi. SHuning uchun ularni tarbiyalash uchun mahsus usul va vositalarni bilish orkali ularni ruhiy holatini, ehtiyojlarini, kizikishlarini bilish orkali ta’sir utkazish mumkin. Maktab tarbiyachilari,

O’qituvchilari, sinf rahbarlari, maktab rahbarlari tajribasini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, tarbiyasi qiyin o’quvchilarning o’ziga hususiyatlarini, psihologiyasini, hayot tarzini bilmaslik,oiladagi, maktabdagi kamchiliklar tarbiyasi qiyin o’quvchilarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Tarbiyasi qiyin o’quvchilar va pedagogik e’tibordan chetda qolganlar aynan bir narsa emas. Ammo pedagogik

e’tibordan chetda qolganlar tarbiyasi qiyin o’quvchilarga aylanishi mumkin. Asosan, bunda, oila muhiti muhim urin tutadi. Ota-onaning farzandiga befarkligi, ular bilan umuman shugullanmaslik, ularga deyarli e’tibor bermaslik,bir farzandini boshkasiga nisbatan ko’prok erkalatishi ota yoki onaning alkogolizmga berilib ketishi,bolalar uchun sharoitning yo’qligi, ularning fikri bilan urtoklashmaslik, ularga ko’pol muomalada bo’lish, haddan tashkari ularga ko’prok e’tibor berish tarbiyasi qiyin bolalarning kelib chiqishiga sabab bo’ladi.

## Atokli pedagog V. A. Suhamlinskiyning tarbiyasi qiyin o’quvchilar bilan korrektsiey diagnostik ishlari.

Tarbiyasi qiyin bolalar qanchadan-qancha uy-hayollar, tashvishlar, hafagarchiliklar keltiradi ular o’qituvchilarga ham ota-onalarga ham...

Bir kuni avtobusdan uyga kaytayotib, yosh temir yo’lchi, III sinf o’quvchisining otasi bilan tanishib koldim. U uyiga - o’zining doimiy ish joyi bo’lgan o’zok bir kichiq stantsiyaga kaytib ketayotgan ekan. U bekatda maktab yo’q, shuning uchun ota-onalarning temir yo’ldan chetdan sakkiz yilllik maktabiga o’qishga berishar ekan.

Avtobusda ikkalamiz qolganimizda, unga shunday dedim:

Dardingizni menga aytib kuringchi. Ehtimol biron foydam tegib kolar.

Ishchi menga quyidagilarni gapirib berdi.

Ota-onalar majlisiga borgandim. Uglim 3-sinfda o’qiydi. Kachon maktabga boradigan bulsam, yuragim orkamga tortib ketadi. Har gal bir ran ni eshitaman: sinfdagi bolalarning hammasi tuppa-to’zuk bolalar o’qishi yahshi yoki konikarli, a’lochilari ham bor, meniki bulsa - befahm nunok. Boshka bolalar darsda talab masala echsa, mening bolam bittasini ham eplay olmas ekan. «Masala shartini ohirigacha ukib borguncha boshini unutib qo’yadi» - deydi o’qituvchi. O’qituvchi bilan yolgiz kolib surayman: «Endi uglimga nima bo’ladi? Ehtimol uni birorta mahsus maktabga yuborish kerakdir!» - «Yo’q, yuborish kerak emas, deydi u.

U erga uni kabul qilishmaydi, negaki u akliy kolok emas, normal bola» - Akli normal bulsa, nega endi u to’zukrok, akalli uchga ukimaydi? Sababi nima? Ishonsangiz, umrimning yarmini berardim, shu bolam odam bo’lib chiqsa. Hozirda esa odamni bilimsiz tasavvur ham kilib bulmaydi.

Kimlar o’zi, tarbiyasi qiyin bolalar? YAkin-yakingacha mana bunday fikr juda odat bo’lib qolgan edi. YOmon o’quvchi bulmaydi, yomon o’qituvchi bo’ladi, hamonki shunday ekan, tarbiyasi qiyin bolalar ham bulmaydi, ularni o’quvsiz pedagoglar tarbiya berishni bilmasliklariga biron bahona ko’rsatish uchun uylab chiqaradilar. Mas’uliyatdan kochish uchun tarbiyasi qiyin so’zlar hamma vaqt kushtirnokka olib yozilardi - shu havfsizrok edi. Tarbiyasi qiyin bolalar yo’q - «tarbiyasi qiyin» bolalar bor, bu esa bir ran emas.

Tarbiyasi qiyin bolalar bor, ulardan kochib kutulib bulmaydi. O’qituvchilar buni juda yahshi biladilar. Tarbiyasi qiyin bola- bu kichkina bir odam bo’lib, juda hilma-hil sabablarga kura biz uning akliy rivojlanishida orkada qolgan kandaydir chetga chiqishlar borishni kuramiz.

Tarbiyasi qiyin bolalar - murakkab tushuncha. Ularning har birida tarbiyasi qiyin boshka bolalarga uhshamagan, o’zigagina hos, alohida, individual, nimasidir: o’z sababi, o’z hususiyati, o’zining normadan chetga chiqish, o’zining tarbiya yo’li bo’ladi.

Maktablarning birida o’qituvchilarni o’quvchilarning o’zaro munosabatlari hakida uylanib kolishga majbur etgan bir vokea yo’z berdi. Sobir M 1-sinfga keldi. Mashgulotlarning dastlabki kunlaridan boshlabok uning serharakatligi o’qituvchini tashvishlantira boshladi.

- Dars vaqtlarida hadeb tipirchilayveradi, - deb shikoyat kildi. O’qituvchi bolaning onasiga. - bir dakika ham tinch utirmaydi dedi. Bu shikoyatlar asta-sekin tobora kat’iylasha bordi.

Sobir ruhsat suramasdan gapiraveradi. Bugun darsda hech narsadan hech narsa yo’q kulib yubordi. Partada yonida utirgan bolaga bir nimalar degan edi, u ham butun dare davomida kulgidan tuhtamadi.

Uni endi nima kilamiz? - deb suradi hafa bo’lgan onasi. Keling mana bunday kilaylik, - deb taklif etdi o’qituvchi. - Kundalik daftar tutaylik, men har kuni uning hulkiga baho kuyib boray. Umuman uning hamma kiliklari hakida yozib boray. Siz esa chora kurib boring. Onasi kuvonib ketdi, lekin uni o’qituvchining chora kurib boring, -degan so’zlari tashvishlantirib kuydi.

"Kanday choralar" - deb uyladi u.

SHu tarika kundalik daftarda bunday yozuvlar paydo bula boshladi: "Sobir kogozdan samolyot yasab uchirib yubordi ... Urtogiga shivirlab aytib turdi... Uglingiz tokat kilib bilmaydigan darajada kuloksiz bo’lib ketmokda". Onasi har safar surar edi:

Nima kilyapsan, Sobir? Nega kulok solmaysan? Nega o’zingni boshka bolalardek tutmaysan? Bola indamas, tinik kuk ko’zlari bilan olis-olislarga karardi. Onasiga o’zining savollari Sobirni ajablantirayotgandek tuyuldi va bu hol uni gazablantira, jahlini chiqara boshladi va Sobirni ura ketdi. Nima kilyapsan oyi? - deb bakirdi u.

Bola kurkanidan kotib koldi, ko’zlari olayib ketdi. U bunday ogrikni va hurlikni hech kachon kurmagan endigina emas, hatto uning bolaligi shunday sharoitlarda utgan ediki, u odam odamni urishi mumkinligini bilmasdi.

Bolaning kungli nozik bo’ladi. O’qishda, umuman butun maktab hayotida bolaga e’tiborsizlik va beparvolik bilan karalsa ko’pdan-ko’p qiyinchiliklar va

tuganoklar paydo bo’lib, bolaning o’zi bartaraf etolmaydigan iztiroblar uchun sharoit vujudga keladi. Bunday iztiroblar bulmasligi kerak. Biz rahbarlar buni puhta uylab kurmogimiz lozim.

O’qituvchi va ota-onaning pedagoglik madaniyati, bolalar tarbiyasiga dahil hammaning ular takdiri uchun fukarolik ma’suliyatini anglab etish eng to’g’ri va ishonchli vositadir.

Bola yahshilik va yomonlikka, hak va nohaklikka nisabatan juda sezgir bo’ladi. Agar katta yoshdagi odam nohaklikni hato deb tushunishi mumkin bulsa, bola hayotning barcha murakkabliklarini hali tushunmaydi. Afsuski, katta yoshdagilarning hammasi ham bolaning ruhiy kechinmalari to’g’risida tasavvurga ega deb bulmaydi. Ruhiy holat insonning bironqbir tarzda bola shahsiga ta’sir etuvchi hatti-harakatlariga berilgan chukur shahsiy emotsional bahodir. Bunday hatti-harakatlardan juda kattik, avvalo emotsional ta’sirlanish bolaga hos bir holatdir. Bolaga nohaklik kattik ta’sir qiladi. Bola ko’pol bakirikdan, mazah qilishdan, yo’l-yo’lakay aytilgandek bo’lib tuyulgan, lekin hatto har bir katta odam ham beparvolik deb bulmaydigan tanbeh ham va - bu juda muhim kattaning bolaga takabburlik bilan karashda ham, e’tiborsizlikda ham nohaklikni ko’radi. Nohaklik bolaga hakorat bo’lib tuyuladi, uning izzat-nafsiga tegadi, gazabini ko’zgaydi, uning kalbida faol va passiv norozilikning g’oyat turli-tuman shaklilarini keltirib chiqaradi. Katta yoshdagi odamni engilgina hayajonlanib bolada katta kulfatni manbai bo’lishi mumkin. Maktabimizda shunday bir vokea bo’lgan edi. Men beshinchi sinf o’quvchisi S. Komil yonidan utib keta turib, unga ko’z kirini tashlab kuydim va uning ko’zida bolalarga hos bulmagan kattik iztirob alomatlarini kurib hayratdan tuhtab koldim. Buning sababi kattalar nuktai nazaridan arzimas bo’lib tuyulishi mumkin bola har bir o’quvchi tayyorlab kelishi lozim bo’lgan gerbariyni biologiya o’qituvchisiga bir kun kechiqib keltirgan ekan, o’qituvchi esa unga vaqtida keltirmading, endi kerak emas, debdi. Bola o’zining boshka gam-tashvishlarini so’zlab berganida men bu so’zlardan allanechuk bo’lib ketdim. Oilada bolaning boshiga qanchadan-qancha mashakkatlar tushibdi. Buning ustiga dilsiyohlik va hafagarchiliklar bo’lib to’rgan bir paytda biologning kattikkulligi

ulganning ustiga chiqib tepgandek bo'libdi. Ana shu vokea meni tevarak-

Atrofdagilarning ayniqsa bolalarning ruhiy holatiga e'tibor berishga o'rgatadi. Nozik tabiatli sezgir bolani beparvolik gangitib qo'yadi, tashvishga soladi. Bir kuni mening ko'z oldimda shunday vokea sodir buldi.

Uchinchi sinfda o'qiydigan, sochlari yugon kilib urilgan kuk ko'zli jajji kiz Umidaning kuvonchi bugun ichiga sigmaydi. Otasi kasal bo'lganiga bir yildan oshib ketgan, kasalhonada yotib uch marta operatsiya kildirgan edi. Umida va onasi kaygurishardi. Umida kechalari uygonib ketgan paytlarida onasi jimgina yiglayotganini bir necha bor eshitgan.

Bugun esa otasi sogayib ishga tushib ketgan. Bakuvvat va bardam. Hursandiligidan Umidaning ko'zlari porlab turibdi. Kiz maktabga kelayotganida hovlidan sinfdoshlari Murod bilan SHerzodni uchratib koldi va kuvonchini ichiga sigdirmay dedi:

Dadamlar sogayib ketdilar.

Murod bilan SHerzod Umidaga ajablanib qarab, elkalarini kisib kuydilar-da, hech nima demay, tup orkasidan yugurdilar.

Katta sinf uynaygan kizlar oldiga bordi.

Dadamlar sogayib ketdilar, - dedi u. Hursandiligidan uning ko'zlari chaknar edi.

Kizlardan biri, Dildora. Ajablanib suradi: Hush nima bupti?

Umidaning tomogiga bir narsa tikilgandek nafasi chiqmay koldi. U maktab hovlisining bir chekkasidagi yakka terak tagiga borib yiglab yubordi.

-Nega yiglayapsan, Umida? - degan ovozni eshitdi u; bu eng ohirgi partada utiradigan kamgap bola Alisherning ovozi edi. Umida boshini kutardi va hik-hik yiglab javob berdi:

Dadamlar sogayib ketdilar.

Kanday yahshi! - hursand bo'lib ketdi Alisher. - Uyimiz yonidagi kargayzorda marvaridgullar ochilib yotibdi. Darsdan keyin u erga boramizda, eng chiroylilarini terib dadamlarga hadya etamiz.

Kuvonchi dan Umidaning ko’zlari porlar edi.

